



**XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONDA
QORAKO‘LCHILIK SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH JARAYONI**

Sa’dullayev Sanjar Salohiddinovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi*

E-mail: sadullayevsanjar26@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-0155-9372>

Annotatsiya. Yurtimizda qorako‘l yetishtirish iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri edi. Buning uchun kadrlar yetishtirish va ularning salohiyati muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada XX asr birinchi yarmida yurtimiz hududida qorako‘lchilik borasida kadrlar yetishtirish va ularning salohiyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: qorako‘lchilik, terichilik, texnikum, ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriyalar, zotexnikum, mahalliy kadrlar.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda qorako‘lchilikni rivojlantirishning asosiy omili sifatida kadrlar tayyorlash ishiga e’tibor qaratildi. O‘zbekiston qorako‘lchilik xo‘jaliklarini kadrlar bilan asosan sobiq ittifoq markaziy shaharlarining ta’lim muassasalari ta’minlab keldi. Masalan, 1928 yilda Xarkov qishloq xo‘jaligi texnikumi bitiruvchilari Blinnikov va Lomakinlar Buxoro tajriba-naslchilik fermalari (ovcharniy)ga yuborildi. Biroq ferma mudiri Petrov zootexnika bo‘yicha mutaxassislikka ega yoshlarni o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha emas, balki ularga texnik vazifasini yuklatdi. [1].

O‘zbekistonning o‘zida qorako‘lchilik sohasi uchun kadrlar tayyorlash ishi XX asrning 20–30-yillaridayoq boshlab yuborildi. Bunda Rossiyaning qishloq xo‘jaligi institutlari bilan hamkorlik qilinib, qorako‘lchilik yo‘nalishi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida qo‘ychilik sohasining mohir bilimdonlari O‘zbekistonga kelib, o‘z bilim va malakalarini kadrlar tayyorlashga sarflashlari natijasida qorako‘lchilik sohasi kadrlarini



o'qitishda ijobiy natijalarga erishildi. Samarqand qishloq xo'jaligi instituti Ittifoqqa qorako'lhilik bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi asosiy o'quv muassasasi bo'ldi.

O'zbekistonda 1929–1930 o'quv yilida O'zbek davlat zooveterinariya institutida qorako'lhilik fakulteti faoliyati yo'lga qo'yildi. 1931 yili M.F. Ivanov, V.M. Yudin, K.A. Begidov, A.F. Nejilskiy kabi olimlarning tashabbusi bilan Moskva qo'ychilik institutida qorako'lhilik fakulteti ochildi. Fakultetda M.F. Ivanov, M.S. Karpov, V.M. Yudin, B.N. Vasin, N.P. Dubinin, Ya.L. Glembotskiy, S.N. Bogalobskiy, E.T. Vasina, E. Panova, P.F. Rakitskiy va boshqalar faoliyat ko'rsatdi. Ushbu fakultetda o'qish uchun O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istondan qorako'lhilik xo'jaliklari vakillari yuborildi. Moskva qo'ychilik institutida qorako'lhilik fakultetini qorako'lhilik sohasining taniqli mutaxassislari B.N. Otaqurbonov, N.S. Gichineyshvili, V.I. Stoyanovskaya, E.A. Pomanskiy, A.M. Lisov, D.F. Boyko, M.A. Komevoy, M.D. Mukanov, M.D. Tavitov, I.N. D'yachkov, P.A. Shulgin, D.I. Potashev, X.X. Mamatkaziy va boshqalar o'qib tugatdi.

Malakali va sifatli kadrlarni tayyorlash uchun o'quv binolari, jihozlar, moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lmaganligi, shuningdek, yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmagan abituriyentlar va ularni tayyorlash uchun o'qituvchilarning yetishmasligi institut faoliyatida katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

1932 yil 30 aprelda O'zbekiston SSR XKSning yig'ilishida qorako'lhilik sohasi uchun kadr tayyorlovchi institut va Qorako'lhilik ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Har ikkala institut qorako'lhilikning iqtisodiy markazi hisoblangan Eski Buxoro shahrida ochilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Bino qurilishi uchun mahalliy qurilish materiallaridan va ishchi kuchidan foydalanish hamda qurilishning 1933 yilda tugallanishi belgilandi. [2].

Qorako'lhilik sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar asosan Samarqand qishloq xo'jaligi instituti zootexnika fakultetida tayyorlandi. Qorako'lhilik kafedrasi 1932 yilda tashkil etilib, uning birinchi mudiri F.F. Epanchishev bo'ldi. Kafedraga 1932–1942 yillarda P.V. Arapov, 1942–1947 yillarda S.L. Popkov mudirlik qildi. 1947 yildan boshlab kafedraga professor A.A. Rahimov rahbarlik qilgan.



Undan keyingi yillarda qorako'lichilik kafedrasiga dotsentlar Sh.M. Rizaev, A.S. Lebedov, U.N. Obloqulov, S.M. Mamatov, A.I. Ismoilov, V.X. Soliev, S.E. Shaptakov, S.Yu. Yusupov, A.I. Inoyatovlar mudirlik qildi.

Turli davrlarda ushbu kafedrada Yu.N. Nosirov, A.K. Lebedov, U.B. Sa'dullaev, N.S. Badalboev, Sh.M. Rizaev, T.M. Ahmadjonov, Sh.A. Abdivohitov, B.T. Taganov, N. Belobrova, I.K. Hoshimov, O.R. Rajabov, A.I. Ismoilov, S. Shaptakov, A. Rahimov, A. Inoyatov, S.R. Bozorov, R.X. Ruzimurodov, S.B. Sattorov, laborantlar Z. Safarova, D.A. Biserovalar faoliyat olib bordi.

Oliy o'quv yurtida talabalarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida muayyan tadbirlar olib borildi. Institutda 300 kishiga mo'ljallangan yotoqxona bo'lib, ammo ularda yumshoq va qattiq inventarlar, ya'ni choyshablar, to'shaklar, stol-stullar yetishmadi. Yotoqxona qoshida oshxona tashkil etilib, 1 rubl 70 tiyinlik nonushta va tushlik berildi. [3].

1935 yilda zootexniya va mexanizatsiya fakultetlarining dastlabki bitiruvchilari diplom oldi. Qorako'lichilikka ixtisoslashgan zootexnika fakultetining 18 nafar bitiruvchisidan 13 nafari mahalliy millatlar vakillaridan edi, ya'ni o'zbek, tojik va qozoqlar. Birinchi bitiruvchilar orasidan keyinchalik o'zining nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlari bilan yetuk olimlar yetishib chiqdi.

G'ulom Alievich Aliev O'rta Osiyo sharoitida urug'chilik qilinadigan qo'y zotlarining mahsuldorligini oshirish va boshqa xo'jalikda foydali belgilarini takomillashtirish borasida tinmay salmoqli ishlar olib bordi. U Tojikistonda yangi qo'y zotini yaratdi. Tojikiston Fanlar Akademiyasi va VASXNILning haqiqiy akademigi etib saylandi. Tojikiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor, uzoq yillar yuqori lavozimlarda ishladi. Dastlab Tojikiston qishloq xo'jalik vaziri, institut rektori, Tojikiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining kotibi, keyinchalik umrining oxirigacha Tojikiston Fanlar Akademiyasi biologiya bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Yana bir mashhur olim — O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador, Qishloq xo'jaligi akademiyasining akademigi, professor Abdullo Ahmedovich Rahimov butun hayotini va ilmiy faoliyatini qorako'lichilik sohasining



rivojlanishiga bag'ishladi. Shu soha bo'yicha o'zbekistonlik birinchi fan doktori, o'zbek tilidagi qorako'lichilik darsligining muallifi bo'ldi.

Davron Hamraqulov ham butun umrini qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan chorvachilikni rivojlantirishga bag'ishladi. U Samarqand viloyati partiya komitetining kotibi va umrining oxirigacha Samarqand zooveterinariya texnikumining direktori lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

Shuningdek, Iosif Lazarevich Mavshov ham umrining oxirigacha Samarqand qishloq xo'jaligi institutining genetika va chorva mollarini urug'chilik kafedrasida faoliyat ko'rsatib, yoshlarga chorvachilik sirlarini o'rgatishda jonbozlik ko'rsatgan ustozlardan biri bo'ldi.

Fakultetning shakllanishiga ko'plab olimlarning mehnati singdi. Ayniqsa, fakultet dekanlarining xizmati katta bo'ldi. Fakultet tashkil topgan kundan 1933 yilgacha kim dekan bo'lib ishlaganligi to'g'risida arxivlarda ma'lumot uchramadi. Fakultetga 1933–1936 yillarda dotsent K. Mirboboev, 1936–1941 yillarda dotsent P.B. Arapov, 1942–1953 yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor P.M. Pushkaryov, 1953–1954 yillarda dotsent S. Maman, 1954–1955 yillarda dotsent N.F. Skavish, 1956 yilda professor A.K. Ermolaev, 1956–1957 yillarda dotsent A.A. Rahimov, 1957–1969 yillarda professor N.O. Mavlonov, 1969–1975 yillarda professor P.S. Sobirov, 1975–1985 yillarda professor Z.T. To'raqulov, 1985–1990 yillarda dotsent S.A. Kubaevalar rahbarlik qildi.

Har o'quv yili davomida talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi tahlil etib borildi. 1936–1937 o'quv yilida Samarqand qishloq xo'jaligi instituti zootexnika fakulteti talabalarining o'zlashtirishi 85,8 foizni, o'quv rejadagi fanlarni o'zlashtira olmagan talabalar 14,2 foizni tashkil etdi.

Sovet davlatida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'z o'rnida Samarqand qishloq xo'jaligi instituti hayotida ham o'z aksini topdi. XX asrning 30-yillari qatag'onlik siyosati institut jamoasini chetlab o'tmadi. 1937 yilda Samarqand qishloq xo'jaligi institutida xalq dushmani degan tamg'a ostida afsuski bir nechta o'qituvchilar qatag'on qilindi. [4].



O'rta Osiyoda birinchi qishloq xo'jaligi instituti o'ziga xos yo'lini tanlab, shu hududga kerakli kadrlar tayyorlash maqsadida qorako'lchilik va hayvonlarning noma'lum bo'lgan kasalliklari hamda boshqa respublikalardagi muammolarni yechish uchun bilimli mutaxassis kadrlar tayyorlash maqsadida kafedralarga yangi mutaxassislar jalb qildi. Shuningdek o'qituvchilar va talabalarning ishlab chiqarish bilan doimiy aloqada bo'lishi ta'minlandi. Masalan, Bo'lajak mutaxassislar doimiy ravishda kolxoz-sovхозlarga borib malaka talab qiladigan chora-tadbirlarda faol ishtirok etdi. Institut olimlari va talabalari shahar veterinariya davolash va veterinariya bakteriologik laboratoriyalari bilan doimiy hamkorlikda ish olib bordi. O'quv va ilmiy ishlarni davom ettirish uchun institutning moddiy-texnika bazasi birmuncha zaif bo'lsa-da, o'quv ishlari uzluksiz takomillashtirib borildi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, XX asr birinchi yarmida O'zbekiston qorako'lchilik xo'jaliklarida to'liq hal etilmagan muammolardan biri kadrlar masalasi bilan bog'liq bo'ldi. Qorako'lchilik ilmning sirlarini avloddan avlodga yetkazishda tajribali cho'ponlarning o'rni katta bo'ldi. Qorako'l qo'y zoti xalq seleksiyasi natijasida yaratilib, soha bilimdonlarining sa'y-harakati bilan qorako'l terilari o'zining nafisligi uchun jahon mo'yna bozorining eng xaridorgir mahsuloti bo'ldi. Mohir cho'ponlar qish og'ir kelgan yillarda ham qorako'l qo'ylar otarlarini ko'paytirish, seleksiya-naslchilik ishlarini rivojlantirish uchun mehnat qildi. O'z o'rnida o'zbekistonlik ilg'or cho'ponlarning tajribasini ommalashtirish tadbirlari olib borildi. Lekin qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda mehnatga haq to'lashda boshqa sohalar qatori adolatli tarzda yondashilmadi.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Юсупов Д. Қоракўл териларни қайта ишлаш // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги, 1993. – №3. –Б. 25-26..
2. Ўзбекистон МА, Р-837-фонд, 11-рўйхат, 858-иш, 17-18-варақлар.
3. Самарқанд вилояти давлат архиви, 848-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 12-варақ.
4. Самарқанд ВДА, 848-фонд, 1-рўйхат, 35-иш, 13-варақ
5. Самарқанд ВДА, 848-фонд, 1-рўйхат, 4537-иш, 1-3-варақлар.